

## TURLI MUDDATLARDA SHOLINI KO'CHAT USULIDA EKILGANDA O'SISH DINAMIKASI VA POYASINING BALANDLIGI

*Q.O'razmetov*

*TDAU O'simlikshunoslik kafedrasi dotsenti*

*A.Shermatov*

*TDAU magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada turli ekish muddatlari tuproqning mexanik tarkibi, sizot suvlarining joylashish chuqurligiga bog'lik xolda o'zgarishi mumkin. Shunga kura bir xo'jalikning o'zida ham ekinlar dala sharoiti hisobga olinib turli muddatlarda ekilishi mumkin. Sholi erta muddatlarda ekilsa maysalar biroz siyrak chiqadi, lekin o'simliklar mahsuldor bo'lib yetiladi va mo'l hosil olinadi, hosili erta yetiladi. Olib borilgan tajribada sholining Tarona navi poyasining nazorat navga nisbatan 3-4 sm baland bo'lganligi aniqlandi

**Kalit so'zlar:** tuproq, sholi, o'g'it, maydon, ekologik qulay shariotlar.

**Annotation.** According to the article, different sowing dates may vary depending on the mechanical composition of the soil and the depth of seepage. Therefore, crops can be sown at different times, taking into account field conditions, even in the same farm. If rice is sown early, there will be little grass, but the plants will grow productively, and the harvest will be plentiful, and the harvest will ripen early. In the experiment, it was found that the stalk of rice of the Tarona variety was 3-4 cm higher than the control variety.

**Key words:** soil, rice, fertilizer, field, environmentally friendly sharia

**Аннотация.** Согласно статье, разные сроки посева могут меняться в зависимости от механического состава почвы и глубины просачивания. Поэтому посевы можно сеять в разные сроки с учетом полевых условий даже в одном хозяйстве. Если рис посеять рано, то травы будет мало, но растения вырастут продуктивно, и урожай будет обильный, и урожай созреет рано. В проведенном опыте установлено, что стебель риса сорта Тарона был выше контрольного сорта на 3-4 см.

**Ключевые слова:** почва, рис, удобрения, поле, экологически чистый шариат.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda sholini ko'chat usulida yetishtirish keng ommalashib bormoqda. Yer yuzidagi barcha sholi maydonlarining 95%ida sholini ko'chat usulida yetishtiriladi.

Asosiy sholi yetishtiruvchi Yaponiya, Koreya, Xitoy, Hindiston, Italiya, Ispaniya singari Yevropa mamlakatlarida sholini ko'chat qilib yetishtirish uchun seriyali maxsus mashina-mexanizmlar shunday turli-tuman rusumlarda ishlab chiqarilgan.

Keyingi yillardagi mamlakatimiz tabiatida ro'y bergan qattiq qurg'oqchilik sholichiligimizga jiddiy zarar yetkazib, bu soha oldida juda ko'p muammolarni

keltirib chiqardi. Bunda jami ekiladigan sholi maydonlari o'rtacha 150 ming gektardan 100 ming gektarga tushib qoldi hamda yalpi mahsulot yetishtirish keskin kamayib favqulodda choralar ko'rilishini taqozo etdi va ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishlarida ham tub burilishlar, muhim o'zgartirishlar kiritilishi talab etildi.

Respublikamizda ham sholini ko'chat usulida yetishtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot uslublari: Ilmiy-tadqiqot ishlarida laboratoriya va dala tajribalarini qo'yish, biometrik o'lchash, fenologik kuzatishlar «Metodika Gosudarstvennogo sortoispytaniya selskoxozyaystvennyx kultur», «Metody agroximicheskix analizov pochv i rasteniy», «Metody agrofizicheskix issledovaniy», «Dala tajribalarni o'tkazish uslublari» kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Dala tajribalarda olingan natijalarining dispersion va statistik tahlillari Microsoft Excel dasturlari yordamida B.A.Dospexov bo'yicha hisoblangan.

Tadqiqot natijalari: O'simliklar ontogenezini tavsiflovchi eng muhim jarayonlar – o'sish va rivojlanish hisoblanadi. Ushbu ikki ko'rsatkich o'simliklar tanasidagi barcha hayotiy reaksiyalarning natijasi hisoblanib, bu jarayonlar bir-biriga uzviy bog'liqdir. Bunda o'sish va rivojlanish umumiy bir yaxlitlikni tashkil etib, o'simlik tanasida kechadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlarga, o'simlikning ildiz orqali va havodan oziqlanishiga, energiya bilan ta'minlanishiga, umuman, assimilyatsiya va dissimilyatsiyada ishtirok etuvchi barcha jarayonlar yig'indisiga bog'liq bo'ladi [1, -17-22 b.].

Sholining vegetatsiya davri bir necha muddat fazalarga bo'lib o'rganiladi hamda ana shu fazalarning me'yoriy kechishi uchun ma'lum haroratda, suv sharoitlari, o'g'itlash va boshqa agrotexnik ishlar olib boriladi. Shuning uchun ekish muddatlarini belgilashda ob-havo, iqlim sharoitlari hisobga olinib, gullash fazasi to'g'ri keladigan vaqtga rioya etilishi talab qilinadi. Har qanday holatda ham sholining gullash fazasida o'rtacha havo harorati 30°S dan oshgan davrga to'g'ri kelmasligi kerak va shundagina changlanish to'liq yuz beradi. Bu shart buzilsa changlanish to'liq yuz bermaydi va natijada hosil kamayadi. Bunda juda yuqori havo haroratida otalik changdonlari qurib qoladi, onalik tuxumchasi so'lib, plazmoliz holati yuz beradi va changni to'liq qabul qilolmaydi. Natijada ko'zlangan sholi hosilini olib bo'lmaydi. Havo namligi juda yuqori bo'lsa gulini ochilishiga to'sqinlik qiladi va bundan tashqari yuqori namlik changdonlarini to'liq yorilishiga ham imkon bermaydi va ayrim hollarda umuman changdonlar ochilmay qoladi va changlanish yuz bermaydi. Havoning o'ta quruqligi o'ta namlikka nisbatan kamroq zararli bo'lsada, namlik 50 foizdan kam holatlarda ham gullar ochilishi yuz bersada, changlanish yuz bermaydi. Namlik 70 foizdan kam bo'lsa, ayniqsa 65 foiz kam bo'lsa, changlanish darajasi keskin kamaya boshlaydi. Chunki bunda onalik tumshuqchasi so'lib, qurib qoladi va changni qabul qilolmaydi.[2, -23-25 b.]

Shu bilan birga [3, -30-33 b.] tomonidan o'simlikning o'sish va rivojlanish dinamikasiga meteorologik, agrotexnologik, tuproq, suv va boshqa bir necha

omillarning ta'siri ham katta. Ushbu omillarning sholi o'simligini o'sib rivojlanishiga bog'lab, turli davrlarda bir qancha izlanishlar olib borilgan.

Sholini ko'chat usulida turli muddatlarda ekilganda o'simlik poyasining balandligiga ta'siri o'rganilganda, Sholining Lazurniy navini urug'larini kassetaga birinchi aprelda ekib dalaga o'ttinchi aprelda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 73 smga, kassetaga o'ninchi aprelda ekib dalaga o'ninchi mayda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha va kassetaga yigirma beshinchi aprelda ekib dalaga yigirmanchi mayda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 79 smgacha o'sib nazoratga nisbatan 4 smga yuqori bo'ldi.

Nav	Ekish muddatlari		Rivojlanish fazalari (sm)			
	dalaga	kassetaga	Tuplanish	Naychalash	Ruvaklash,	Gullash, pishish
Lazurniy	30.04.	01.04. (st)	35	68	104	108
	10.05.	10.04.	39	74	112	118
	20.05.	25.04.	40	81	113	119
Taron	30.04.	01.04. (st)	34	72	117	124
	10.05.	10.04.	43	84	127	136
	20.05.	25.04.	45	87	129	139

Sholining Taron navini urug'larini kassetaga birinchi aprelda ekib dalaga o'ttinchi aprelda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 90 smga, kassetaga o'ninchi aprelda ekib dalaga o'ninchi mayda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 93 smga va kassetaga yigirma beshinchi aprelda ekib dalaga yigirmanchi mayda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 94 smgacha o'sib nazoratga nisbatan 3-4 smga yuqori bo'ldi.

Xulosa: Turli muddatlarda sholini ko'chat usulida ekilganda sholi o'simligining poya balandligiga sezilarli ijobiy ta'sir etishi aniqlandi. Bunga ko'ra sholi ko'chatini dalaga may oyining 10-20 may kunlari dalaga ekilganda nazoratga nisbatan 3-4 smga yuqori bo'lganligi qayd etildi.

Sholi navlari	Ekish muddati		Rivojlanish fazalari						
	kassetaga	dalaga	Unib chikish	May salash	Tup lash	Nay chalash	Ruvak lash	Gullash	Pishish
	01.04.	30.04.	14/04.	3/05.	7/06.	1/07.	13/07.	18/07.	27/08.
	10.04.	10.05.	23/04.	12/05.	15/06.	10/07.	23/07.	28/07.	6/09.
	20.04.	20.05.	1/05.	20/05.	24/06.	20/07.	1/08.	7/08.	13/09.
	01.04.	30.04.	14/04.	2/05.	14/06.	5/07.	23/07.	29/07.	6/09.
	10.04.	10.05.	22/04.	11/05.	22/06.	13/07.	31/07.	7/08.	15/09.
	20.04.	20.05.	1/05.	19/05.	30/06.	22/07.	8/08.	15/08.	20/09.

---

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Djumanov Z.N. nekotorye osobennosti agrotexniki risa sorta Tolmas. Sb. nauch.tr.// Puti regulirovaniya i problemy povysheniya effektivnosti risovodstva v Uzbekistane. Tashkent. 1990, s.17-22.
2. Sholichilik ilmiy tadqiqot instituti 2007-2012 yillardagi hisobotlari 23-25 b
3. Kirichenko K.S., Djulay A.P., Kosenko I.S. "Kultura risa" Krasnodar 1939 g s 30-33